UO‘K 94(575.1)

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA FARG‘ONA OBLASTIDA POLITSIYA ORGANLARINING TASHKIL ETILISHI VA ULARNING FAOLIYATIGA DOIR

I.B. Jumaboyev

Maqolada Rossiya imperiyasining Turkiston o‘lkasida, xususan, Farg‘ona viloyati hududida joriy etilgan ma’muriy-boshqaruv tizimi doirasida politsiya institutlarining shakllanishi va rivojlanishi arxiv hujjatlari, normativ-huquqiy manbalar hamda tarixiy adabiyotlar asosida o‘rganilgan. Shuningdek, Turkiston general-gubernatorligi tarkibida politsiya boshqaruv organlarining vakolatlari, mahalliy aholi ustidan nazorat o‘rnatish mexanizmlarining tub mohiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *Farg‘ona viloyati, Turkiston general-gubernatorligi, politsiya boshqaruvi, mustamlakachilik siyosati, ma’muriy nazorat, Rossiya imperiyasi.*

В статье на основе архивных документов, нормативно-правовых источников и исторической литературы исследованы формирование и развитие полицейских институтов в системе административного управления, введённой Российской империей в Туркестанском крае, в частности на территории Ферганской области. Раскрываются полномочия органов полицейского управления в составе Туркестанского генерал-губернаторства и механизмы установления административного контроля над местным населением.

Ключевые слова: *Ферганская область, Туркестанское генерал-губернаторство, полицейское управление, колониальная политика, административный контроль, Российская империя.*

KIRISH

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Markaziy Osiyo, xususan, Farg‘ona viloyati tarixida keskin o‘zgarishlar yuz berdi. Rossiya imperiyasining Turkiston o‘lkasini bosqichma-bosqich egallab olishi natijasida nafaqat hududiy va siyosiy tuzilmalar, balki mahalliy boshqaruv, sud hamda politsiya tizimlari ham tubdan qayta shakllantirildi. Ana shu jarayonda politsiya organlari imperiyaning harbiy-ma’muriy boshqaruv apparatining muhim bo‘g‘iniga aylandi.

Farg‘ona viloyatida politsiya boshqaruv organlarining tashkil etilishi rasmiy ravishda jamoat tartibini saqlash, aholi xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish vazifalari bilan izohlangan bo‘lsa-da, amalda mazkur tizim mustamlakachilik siyosatining muhim vositasiga aylangan. Politsiya instituti mahalliy aholi ustidan ma’muriy nazorat o‘rnatish, ijtimoiy harakatlarni cheklash hamda imperiya manfaatlarini himoya qilishga yo‘naltirilgan. Shu jihatdan politsiya faqatgina huquqni muhofaza qiluvchi organ emas, balki siyosiy nazorat mexanizmi sifatida ham faoliyat yuritgan.

MATERIAL VA USULLAR

Mazkur tadqiqotning manbaviy asosini XIX asr oxiri – XX asr boshlariga oid arxiv hujjatlari, normativ-huquqiy manbalar, rasmiy statistik to‘plamlar hamda davrga oid tarixiy adabiyotlar tashkil etadi. Xususan, Turkiston general-gubernatorligi, Farg‘ona oblasti harbiy gubernatori devoni, uyezd boshliqlari va politsiya boshqarmalariga oid buyruqlar, hisobotlar, yo‘riqnomalar va taftish materiallari tahlil qilindi [1, 2, 3]. Shuningdek, Rossiya imperiyasining “kuchaytirilgan muhofaza” tartibi, politsiya vakolatlari va ma’muriy jazo choralarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar o‘rganildi [4, 5]. Rasmiy statistik ma’lumotnomalar (jinoyatchilik ko‘rsatkichlari, shtat jadvali, moliyaviy hisobotlar) tadqiqotning empirik asosini mustahkamladi [6, 7, 8]. Mavzuga doir zamonaviy tarixshunoslik adabiyotlari, milliy va xorijiy

tadqiqotchilarning asarlari ham nazariy-metodologik jihatdan muhim manba sifatida jalb etildi [9, 10]. Manbalar o‘zaro qiyosiy tahlil qilinib, rasmiy hujjatlar bilan amaliy holat o‘rtasidagi tafovutlar aniqlashtirildi.

Avvalo, tarixiy-tahliliy metod asosida arxiv hujjatlari, normativ-huquqiy manbalar, rasmiy hisobotlar va statistik ma’lumotlar mazmunan tahlil qilindi. Ushbu usul orqali politsiya tizimining tashkiliy tuzilishi, vakolatlari, boshqaruv mexanizmi hamda amaliy faoliyati ochib berildi. Hujjatlarning mazmuni davrning siyosiy sharoiti bilan uzviy bog‘liq holda talqin qilindi.

Tarixiy-qiyosiy metod yordamida Farg‘ona oblastidagi politsiya boshqaruv tizimi Turkiston o‘lkasining boshqa hududlari hamda Rossiya imperiyasining ichki guberniyalari tajribasi bilan solishtirildi. Bu esa hududiy o‘ziga xoslik, mustamlakachilik boshqaruvining farqli jihatlari va umumimperiyaviy siyosatning mahalliy sharoitdagi ko‘rinishini aniqlash imkonini berdi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

XIX asrning ikkinchi yarmida O‘rta Osiyo hududlarining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi mahalliy politsiya organlari tizimini tubdan qayta tashkil etishni talab etdi. An’anaviy boshqaruv shakllari bosqichma-bosqich imperiya ma’muriy mexanizmlari bilan almashtirilib, yuqori va o‘rta bo‘g‘indagi politsiya lavozimlari asosan rus amaldorlari tomonidan egallandi, mahalliy aholi vakillari esa quyi darajadagi vazifalar bilan cheklab qo‘yildi. Bu jarayon markazlashgan nazoratni kuchaytirish va mahalliy siyosiy ta’sirni cheklashga xizmat qildi.

Turkiston general-gubernatorligi hududida politsiya tizimi harbiy-ma’muriy xususiyat kasb etib, ma’muriy, sud va politsiya funksiyalari o‘zaro uyg‘unlashgan holda amal qildi. Politsiya organlari jamoat xavfsizligini ta’minlashdan ko‘ra, mustamlakachilik tartibini saqlash va imperiya manfaatlarini himoya qilishga yo‘naltirildi. General-gubernator qo‘lida politsiyaga oid keng vakolatlarning jamlanishi tizimning yuqori darajada markazlashuviga olib keldi. Harbiy gubernatorlar Rossiyaning ichki guberniyalari gubernatorlariga nisbatan kengroq vakolatlarga ega bo‘lib, ma’muriy tartibda jazo choralarini qo‘llash huquqiga ega edilar [1].

Uyezd boshliqlari politsiya va ma’muriy boshqaruvning hal qiluvchi bo‘g‘ini sifatida imperiya siyosatini joylarda amalga oshiruvchi asosiy amaldorlar hisoblangan. Politsiya uchastkalari soni aholi zichligi va strategik ahamiyatdan kelib chiqqan holda belgilangan bo‘lib, jumladan Farg‘ona viloyati 20 ta politsiya uchastkasiga bo‘lingan edi [11. B. 23].

Farg‘ona viloyatida Rossiya imperiyasi namunasidagi politsiya idoralarini tashkil etish 1876-yil 10-mayda Qo‘qon shahrida Turkiston general-gubernatorligi tomonidan tasdiqlangan vaqtinchalik yo‘riqnoma asosida amalga oshirilgan [4]. Viloyat hududida politsiya xodimlari katta va kichik lavozimlarga ajratilgan bo‘lib, ularni tayinlash va ozod etish vakolati shahar boshlig‘ining ixtiyorida bo‘lgan. Xizmat iyerarxiyasi asosida kichik lavozimdagi xodim jamoat tartibi buzilishi holatlarini aniqlab, katta lavozimdagi xodimga xabar bergan, o‘ta zarur hollarda esa ma’lumot uyezd boshlig‘iga yetkazilgan. Yo‘riqnomaga ko‘ra, politsiya xodimlariga aholidan sovg‘a yoki mukofot olish taqiqlangan, chunki ular davlat xazinasidan maosh olgan.

Farg‘ona oblastida politsiya tizimi faoliyatini tartibga solish maqsadida maxsus xizmat libosi ham joriy etilgan. Katta lavozimdagi xodimlar ko‘k, kichik lavozimdagilar esa qizil rangli ustki kiyim bilan ta’minlangan. Har bir politsiyachi o‘z xizmat raqami hamda mahalliy va rus tillarida “politsiyachi” deb yozilgan maxsus belgiga ega bo‘lishi shart bo‘lgan. Libos dastlab davlat mablag‘lari hisobidan berilgan bo‘lib, keyinchalik uni yangilash xarajatlari xodim zimmasiga yuklatilgan [4].

Imperiya ma’muriyati nuqtayi nazaridan Farg‘ona viloyati ijtimoiy va siyosiy jihatdan murakkab, doimiy nazorat hamda kuchaytirilgan xavfsizlik choralarini talab etuvchi strategik hudud sifatida baholangan. Arxiv hujjatlari va rasmiy hisobotlar tahlili politsiya tizimining tashkil etilishi va kadrlar bilan ta’minlanishi aksar hollarda mintaqaning real ijtimoiy-demografik sharoitiga mos kelmaganini ko‘rsatadi. Aholi zich joylashgan, ijtimoiy ziddiyatlar kuchli bo‘lgan shahar va qishloqlarda politsiya xodimlari soni yetarli darajada bo‘lmagan, ularning mahalliy til va urf-odatlarni yaxshi bilmasligi esa xizmat samaradorligini sezilarli darajada pasaytirgan. Shu bois jinoyatchilikka qarshi kurashda belgilangan natijalarga to‘liq erishilmagan, ayrim hollarda esa politsiya faoliyati aholi o‘rtasida norozilik kayfiyatini kuchaytirgan.

1906-yildan boshlab Turkiston general-gubernatorligi hududida politsiya vakolatlari yanada kengaytirilib, uyezd boshliqlari va politsiya amaldorlariga jamoat tartibini buzganlik uchun jazo choralarini kuchaytirish huquqi berilgan. Ayniqsa, “kuchaytirilgan muhofaza” tartibi amal qilgan hududlarda ma’muriy jazolar yanada qat’iylashtirilgan. Qonunchilikda etnik va ijtimoiy mansublikka qarab farqli jazo choralari belgilangan bo‘lib, mahalliy aholi vakillariga nisbatan hibs muddati va jarima miqdori sezilarli darajada

oshirilgan, rus va yevropalik aholiga nisbatan esa yengilroq jazo choralari saqlab qolingan [4]. Mazkur amaliyot politsiya tizimining diskriminatsion xususiyatga ega bo‘lganini hamda uning asosiy maqsadi jamoat tartibini ta’minlashdan ko‘ra, mahalliy aholini doimiy nazorat ostida ushlash va ehtimoliy norozilik harakatlarini cheklashdan iborat bo‘lganini namoyon etadi.

1879-yil 18-dekabrda Turkiston generel-gubernatori Konstantin Petrovich fon Kaufman uyezd boshliqlariga yo‘llagan sirkulyar xatida politsiya va sud-tergov organlari tomonidan mahalliy imomlarni qasamyod uchun yollashga ruxsat bergan. Qasamyod marosimi bevosita tergov ishining bir qismi sifatida ko‘rilgan va uni tashkil etish hamda nazorat qilish politsiya tizimi zimmasiga yuklatilgan. Mullalar yoki imomlar mustaqil tashabbus bilan emas, balki tergovchi va uyezd boshlig‘i talabiga binoan mahalliy aholidan qasamyod olishga jalb qilingan. Politsiyaning asosiy vazifasi qasamyod jarayonini tartibli va ma’muriy jihatdan nazorat ostida o‘tkazishdan iborat bo‘lgan. Agar oddiy mullalar savodsiz yoki yetarlicha tayyorgarlikka ega bo‘lmasa, bu tergov sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi qayd etilgan. Shu sababli politsiya organlari diniy vakillarni tanlash va ularni “ishonchli” toifaga ajratish jarayonida hal qiluvchi rol o‘ynagan. Bu esa diniy institutlarning davlat apparatiga qisman bo‘ysundirilganini ko‘rsatadi. Ya’ni politsiya xodimlari mahalliy aholining diniy e’tiqodidan foydalanib, tergov jarayoniga legitimlik bergan, ayni vaqtda diniy ulamolarni ma’muriy nazorat doirasida ushlab turgan [5].

Viloyat politsiyasi rahbariyatidagi deyarli barcha yuqori lavozimlar harbiy unvonga ega shaxslar tomonidan egallangan. Politsiya idoralarini boshqargan amaldorlar asosan harbiy xizmat vakillari bo‘lib, ular faoliyatida qat’iy intizom, buyruqbozlik va jazolovchi yondashuv ustuvor bo‘lgan. Bu holat politsiyaning fuqarolik huquqlarini himoya qiluvchi organ sifatida shakllanishiga jiddiy to‘siq yaratgan. Aslida esa 1876-yilda qabul qilingan “Turkistonda politsiyani tashkil etish to‘g‘risidagi vaqtinchalik yo‘riqnoma”ga ko‘ra, politsiyaning asosiy vazifasi aholi osoyishtaligini ta’minlash, jinoyatlardan jabrlanganlarni himoya qilish va ijtimoiy tartibni saqlashdan iborat etib belgilangan, politsiya xizmatiga “axloqiy jihatdan munosib shaxslar”ni qabul qilish talabi ilgari surilgan edi [3].

Farg‘ona viloyati hududida politsiya idoralaridagi rahbarlik lavozimlariga asosan yevropalik aholi vakillari tayinlangan. Masalan, 1905–1911-yillarda Andijon shahri politsiyasining turli qismlariga Bajanov, Zolotov va Kolesnikovlar rahbarlik qilganlar. Shuningdek, mazkur davrda politsiya saflarida Boris Medinskiy, Konstantin Prolov, Nikita Anashkin, Pyotr Porsev, Mitrofan Lixobabin, Vasiliy Siroshtanov, Pyotr Polyuskiy, Voysex Liber, Vladimir Kotov, Vasiliy Zelensev va Pavel Konnov kabi xodimlar xizmat qilgani qayd etiladi. Qo‘qon uyezdida esa 1907- yilda Dmitriy Pechornikov, Nikolay Trichulov, Gerasim Bartishev, Aleksandr Prokofev, Ilya Cherkamin va Pyotr Kuliskiy kabi politsiya xodimlari faoliyat yuritgan [4].

Farg‘ona viloyati politsiya idorasida xizmatga qabul qilingan har bir xodim quyidagicha qasamyod qilgan: *“Men, quyida nomi ko‘rsatilgan shaxs, Muqaddas Injil oldida va Qudratli Tangri nomi bilan qasam ichamanki, Oliy hukmdorimiz – Butun Rossiya davlatining podshohi, Imperator Nikolay Aleksandrovich hazratlariga sadoqat bilan xizmat qilaman. U zotga chin dildan va ikkiyuzlamachiliksiz itoat etishga, zarurat tug‘ilganda jonimni ham ayamagan holda, oxirgi tomchi qonim qolguncha xizmat qilishga va davlat hokimiyatini, uning qonunlari hamda mulkini himoya qilishga so‘z beraman. Amaldagi hamda kelgusida qabul qilinadigan qonun-qoidalarni hurmat qilaman va ularni asrashga harakat qilaman. Agar davlat manfaatiga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan har qanday holatni ko‘rsam yoki bilib qolsam, bu haqda o‘z vaqtida xabar beraman va imkon qadar uning oldini olishga harakat qilaman. Menga topshirilgan vazifa va unvonni rahbarlarimning ko‘rsatmalariga muvofiq, vijdonan bajaraman. Shaxsiy manfaat, mol-dunyo yoki tanish-bilish sababli xizmat burchimga xilof ish tutmayman.O‘zimni hukmdor hazratlarining sodiq fuqarosi sifatida munosib tutaman va Tangri oldida bu qasamyodim uchun javob berishga tayyor ekanimni bildiraman. Yaratgan menga ruhiy va jismoniy quvvat ato etsin. Ushbu qasamyodim yakunida Muqaddas So‘z va Xochni ehtirom bilan o‘paman. Amin”* [6].

Shu bilan birga, politsiya idoralariga mahalliy millat vakillari ham faol jalb etilgan. Bu, avvalo, ularning hudud ichki muhitini, urf-odat va an’analarni, aholi o‘rtasidagi ijtimoiy va qarindoshlik aloqalarini yaxshi bilishi bilan izohlanadi. Mahalliy politsiyachilar jamoat tartibini ta’minlash, nizolarni bartaraf etish va tezkor ma’lumot to‘plash jarayonida muhim o‘rin tutgan. Yevropalik xodimlar esa tabiiy ravishda bunday ijtimoiy-mahalliy bilimlarga to‘liq ega bo‘lmagan.

Xususan, Andijon uyezdi politsiyasi tarkibida o‘zbek millati vakillari salmoqli o‘rin egallagan. Birinchi qismda Musa Temirxonov otliq politsiyachi sifatida, Qurbon Ibrohimov va Husayn Muhammadtojiyevlar kichik politsiyachilar sifatida xizmat qilgan. Ikkinchi qismda katta politsiyachilar sifatida Musaxon Valixonov, Tojiboy Mahmudxojiyev, O‘tbosar Muhammadazimov, Madmusa Parpiboyev va O‘tbosar Azimboyevlar qayd etilgan. Shuningdek, Sultonhoji Abduqodirxo‘jayev va Ahmadjon Madraimov otliq politsiyachi, Solih Muhiddin o‘g‘li esa piyoda politsi-

yachi sifatida faoliyat yuritgan. Uchinchi qismda Muhammad Zarifboyev (kichik politsiyachi) va Nuriddin Xo‘jayev (otliq politsiyachi) xizmat qilgan [7].

Uyezd volostlaridagi otliq qorovullar ham asosan mahalliy aholi vakillaridan tayinlangan bo‘lib, ular orasida Muhammadsodiq Muhammadsolihov, Ahmadbek Murodov, Abdusalim Datsiyev, Juqmaboy Botiraliyev, Nuha Hamzamov, Abdurahmon Nazarmuhammedov, Toshmuhammad Sodiqboyev, Qoraboy Solihboyev, Madqurbon Baratboyev, Irisboy Muhammadqulov, Iso Muhammadov va Nasriddin Sodiqov kabi xodimlar faoliyat yuritgan [12].

Qo‘qon uyezdi politsiyasi tarkibida ham mahalliy kadrlar ishtirok etgan. Jumladan, katta politsiyachilardan Qozoqboy Xudoyberdiyev va Mahsud Badalboyev, kichik piyoda politsiyachilardan Ali Oxunjonov, Zokir Sobitov, Olloyor Nazarboyev, Qozoqboy Tursunboyev, Ashur Yo‘ldoshboyev, shuningdek, otliq kichik politsiyachilardan Yo‘ldosh Rizomuhammedovlar o‘zbek millati vakillari sifatida qayd etilgan [13].

Quyi lavozimdagi politsiyachilar yetishmasligi sababli Farg‘ona viloyati shahar aholisi qo‘shimcha ravishda 192 nafar tungi qorovul yollashga majbur bo‘lgan [5. B. 49]. Masalan, 1915-yilga borib Qo‘qon uyezdi aholisi deyarli 120 ming kishiga yetgan. Hududda 60 ga yaqin fabrika va zavod, 2700 dan ortiq savdo rastalari va inshootlar faoliyat yuritgan. Aholi sonining keskin o‘sishi va iqtisodiy faollikning kuchayishi boshqaruv hamda politsiya tizimidan yanada moslashuvchan, resurslar bilan ta’minlangan va puxta tashkiliy tuzilmani talab etgan. Amalda esa mavjud tizim bu ehtiyojlarni to‘liq qondirolmagan, bu esa jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurash samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan [5. B. 148].

Savdo aloqalarining kengayishi Qo‘qonni ko‘p millatli markazga aylantirgan. Shaharda armanlar, yahudiylar, forslar, afg‘onlar, hindlar va boshqa jamoalar soni ortib borgan. Ayniqsa, kuzgi paxta mavsumida ish izlab keluvchilar hisobiga aholi vaqtincha keskin ravishda ko‘paygan. Politsiya hisobotlarida bunday sharoitda jinoyatchilik va jinoyatga moyil guruhlar faolligi ortgani qayd etilgan. Shu bilan birga, qidiruv-surishtiruv ishlarini tizimli tashkil etish va o‘lim holatlarini rasmiylashtirish kabi vazifalar ijrosi yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan. Shu sababli Qo‘qon shahrida boshqaruvni qayta tashkil etish zarurati tug‘ilgan. Uyezd boshlig‘ini bevosita politsiya vazifalaridan ozod etib, vakolatlarni alohida shahar politsiyasi boshlig‘iga yuklash va mustaqil politsiya boshqarmasini tashkil etish masalasi kun tartibiga qo‘yilgan. Bu qaror mas’uliyatni ixtisoslashtirish, jamoat tartibini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurash samaradorligini oshirishga qaratilgan tashkiliy chora sifatida baholangan. 1916-yil 1-martdan yangi shtat jadvali kuchga kiritilib, shaharda 12 nafar shahar politsiya noziri, 6 nafar uchastka noziri, 2 nafar katta nozir va 1 nafar politsiya boshlig‘i yordamchisi lavozimlari joriy etilgan. Ushbu tuzilma shahar hududining kengligi, aholi soni va iqtisodiy faollik darajasini hisobga olgan holda shakllantirilgan bo‘lib, politsiya boshqaruvini institutsional jihatdan mustahkamlashga qaratilgan [8. B. 68].

Farg‘ona oblasti hududidagi politsiya boshqarmalari binolari aksar hollarda zamon talablariga javob bermagan. Masalan, Skobelev shahri politsiya boshqarmasi binosida bir vaqtning o‘zida ikki uchastka pristavi kanselyariyasi joylashgan bo‘lib, shu yerda politsiya jamoasi faoliyat yuritgan, arxiv va ashyoviy dalillar saqlangan, qurol-yarog‘ ombori hamda hibsxona ham bo‘lgan. Bunday holat xizmat vazifalarini samarali tashkil etishga jiddiy to‘sqinlik qilgan [14. B. 112].

Eski Marg‘ilonda politsiya boshqarmasi alohida binoda joylashgan bo‘lsa-da, polismeyster shaharda emas, balki undan 3 verst uzoqlikdagi “Gorchakovo” stansiyasida faoliyat yuritgan. Bu holat shaharda unga munosib xizmat joyi mavjud emasligi bilan izohlangan. Uchastka pristavi kanselyariyasi esa Qo‘qon xonligi davrida qurilgan eski binoda joylashgan. Mahbuslar uchun qurilgan alohida hibsxona ham politsiya boshqarmasidan 2,5 verst uzoqlikda, shahar chekkasida faoliyat ko‘rsatgan. Shuningdek, politsiya boshqarmalarida arxiv hujjatlari va qimmatli ashyolarni saqlash uchun mo‘ljallangan maxsus xonalar mavjud emas edi. Ushbu holatlar politsiya faoliyatining moddiy-texnik jihatdan yetarli darajada ta’minlanmaganini hamda ma’muriy boshqaruv tizimining tashkiliy kamchiliklarini yaqqol namoyon etgan [9. B. 53].

Shu munosabat bilan uyezdlarda muntazam politsiya qo‘riqlash tizimini joriy etish masalasi bir necha bor ko‘tarilgan, general-gubernator nomiga iltimosnomalar va takliflar kiritilgan. Ammo tashabbuslar amaliy natija bermagan. Taftish komissiyasi materiallari (1893-, 1905-, 1907-yillar) o‘lka ma’muriyatining mazkur masalaga yetarlicha e’tibor qaratmaganini tasdiqlaydi [10].

Shunisi e’tiborliki, XX asr boshlariga kelib 120 ming nafardan ortiq aholisi bo‘lgan Qo‘qon, 60 mingdan ortiq aholi istiqomat qilgan Andijon va Namangan kabi yirik savdo-sanoat markazlarida ham mustaqil shahar politsiya boshqarmalari tashkil etilmagan. Ular ma’muriy jihatdan oddiy uyezdlar qatorida qoldirilib, uyezd boshliqlariga bo‘ysundirilgan. Natijada uyezd boshliqlarining ortiqcha ma’muriy yuklamasi politsiya pristavlari faoliyati ustidan to‘liq va samarali

nazorat o‘rnatish imkonini cheklagan, bu esa politsiya boshqaruvida markazlashgan rahbarlikning zaiflashuviga olib kelgan [4. B. 61].

Farg‘ona viloyatida bunday holatga misol sifatida Namangan uyezdi keltiriladi. Jumladan, Namangan uchastkasi hududi 9914 kv. verstni tashkil etgan bo‘lsa, Yangiqo‘rg‘on uchastkasi atigi 1397 kv. verst maydonni qamrab olgan. Biroq hudud jihatdan katta bo‘lgan Namanganda aholi 65264 kishi bo‘lgani holda, maydoni kichik Yangiqo‘rg‘onda 84032 nafar aholi istiqomat qilgan. Bu holat yer maydoni katta, ammo aholi nisbatan kam bo‘lgan uchastkalarda nazorat nisbatan oson kechganini, aksincha aholi zich joylashgan, yo‘l harakati va iqtisodiy faollik yuqori bo‘lgan hududlarda ish yuklamasi keskin ortib ketganini ko‘rsatadi. Noteng taqsimot oqibatida ayrim pristavlar uchun xizmat sharoiti nisbatan yengil, boshqalar uchun esa o‘ta og‘ir bo‘lgan. Bu esa umumiy hisobda politsiya idoralari ish samaradorligining yanada pasayishiga olib kelgan [2].

Farg‘ona viloyatida ayniqsa qidiruv ishlari bo‘yicha hujjat yuritish tizimi qoniqarsiz ahvolda bo‘lgani qayd etilgan. Qidiruv amaliyoti asosan pristavlar zimmasiga yuklatilgan bo‘lsa-da, politsiya boshqarmalarida maxsus “qidiruv kitobi” yuritilmagan. Natijada qidiruv faoliyati tizimli hisobga olinmagan va uning amaliy samaradorligi past darajada bo‘lgan. Masalan, 1907-yilda viloyat bo‘yicha qidiruvda bo‘lgan 6776 nafar shaxsdan birortasi ham aniqlanmagani qayd etilgan [5].

Muammoning yana bir jihati shunda ediki, qidiruv ishlarining katta qismi markaziy idora – Rossiya imperiyasi Politsiya departamenti tomonidan yuborilgan topshiriqlar asosida amalga oshirilgan. Bunday hollarda qidiruvdagi shaxslar asosan imperiyaning g‘arbiy yoki markaziy guberniyalaridan qochgan shaxslar bo‘lib, ularning Turkiston hududida paydo bo‘lish ehtimoli juda past bo‘lgan. Markazdan yuborilgan topshiriqlarni mahalliy sharoit va imkoniyatlar bilan muvofiqlashtirmasdan ijro etish esa qidiruv ishlarining samarasizligiga olib kelgan.

Bundan tashqari, Turkiston o‘lkasi hududlarida qidiruv ishlarini tashkil etish tartibi yagona standart asosida yo‘lga qo‘yilmagan. Har bir uyezd yoki shahar qismi mavjud imkoniyat va mahalliy amaliyotdan kelib chiqib ish yuritgan. Yagona hisob-kitob tizimi va tezkor axborot almashuv mexanizmining mavjud emasligi qidiruv faoliyatini muvofiqlashtirish va uning natijadorligini ta’minlashga jiddiy to‘sqinlik qilgan.

Farg‘ona viloyatida uchastka pristavlari faoliyatida jinoyatlarni o‘z vaqtida rasmiylashtirish, yuqori instansiyalarga axborot berish va ishlarni sud organlariga taqdim etish borasida tizimli kamchiliklar mavjud bo‘lgan. Shu tufayli aholi tomonidan idoraga ko‘plab shikoyat xatlari yozilgan. Masalan, 1908-yil 2-sentabr kuni Qo‘qon uyezdining Konibodom uchastkasiga qarashli G‘ozimulla qishlog‘ida og‘ir jinoyat hodisasi sodir bo‘lgan. Qishloq aholisi vakili Mulla Haydar Mulla Muhammadqulning uyida yong‘in kelib chiqib, natijada uning uy-joyi hamda mol-mulkining bir qismi yonib ketgan. Voqea joyiga yetib kelgan volost boshqaruvchisi jabrlanuvchining ko‘rsatmasiga tayanib ma’lum qilishicha, tungi vaqtda noma’lum to‘rt nafar shaxs uning uyiga bostirib kirgan, avval uni bog‘lab qo‘ygan, so‘ngra uyni ataylab yoqib yuborgan. Jabrlanuvchining ta’kidlashicha, o‘sha paytda tasodifan o‘tib ketayotgan to‘rt nafar mahalliy aholi vakillari tezkorlik bilan yong‘inni o‘chirib, uning hayotini saqlab qolgan.

Mazkur o‘ta og‘ir jinoyat haqida volost boshqaruvchisidan xabar olgan uchastka pristavi amaldagi tartibga zid ravishda voqea to‘g‘risida na sud organlariga, na prokuror nazoratiga, na uyezd boshlig‘iga ma’lumot bergan, shuningdek, hodisa joyiga chiqmagan. 1908-yil 5-sentabrdan 21-sentabrgacha bo‘lgan davrda jinoyat ishi yuzasidan hech qanday surishtiruv ishlari olib borilmagan. Faqat 21- sentabrga kelibgina jabrlanuvchi va guvohlar so‘roq qilingan hamda ular sodir bo‘lgan voqeani to‘liq tasdiqlagan. Shunga qaramay, uchastka pristavi ishni qonunchilikda belgilangan tartibda sud idoralariga yuborish o‘rniga surishtiruv jarayonini 1908-yil oktabr oyigacha sun’iy ravishda cho‘zgan. Bu holat rasmiy ravishda “hodisani to‘liq aniqlashtirish zarurati” bilan izohlangan bo‘lsa-da, amalda qonun talablarining buzilishi sifatida baholangan [3. B. 77].

Farg‘ona viloyatida tergov organlari tomonidan qabul qilingan jinoyat ishlari bo‘yicha ma’lumotlar tahlili hududda jinoyatchilik yilma-yil izchil o‘sib borganini ko‘rsatadi. Xususan, Yangi Marg‘ilon okrug sudi hududida 1900–1907-yillar oralig‘ida qayd etilgan jinoyatlar soni 282 tadan 800 taga yetgan. Ayniqsa, qotillik, talonchilik va o‘g‘irlik kabi og‘ir turdagi jinoyatlar sezilarli darajada oshgan. Masalan, 1905-yilda sodir etilgan 227 ta talonchilik holatidan atigi 20 tasi, 1906-yildagi 206 ta holatdan esa faqat 7 tasi fosh etilgan. Bu ko‘rsatkichlar jinoyatchilikka qarshi kurash samaradorligi past darajada bo‘lganini anglatadi. Hatto pristavlar soni nisbatan ko‘p bo‘lgan Farg‘ona viloyatida ham jinoyatlar o‘sishiga qarshi samarali choralar ko‘rilmagan [6].

1915-yil 1-yanvardan 1916-yil 1-yanvargacha bo‘lgan davrda Qo‘qon qidiruv bo‘limi tomonidan tuzilgan hisobot o‘lka hududida jinoyatchilik holati va politsiya faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini aks ettiradi Unga ko‘ra, hududda harbiy xizmatdan bo‘yin tovlashga ko‘maklashuvchi jinoiy tuzilmalar bo‘yicha 1 ta holat qayd etilgan va u to‘liq fosh etilgan. Qurolli jinoyatlar 5 ta bo‘lib, shundan 4 tasi fosh etilgan. Ot

va chorva o‘g‘irligi bilan bog‘liq 3 ta murojaatdan 2 tasida jinoyatchilar aniqlangan. Oddiy o‘g‘irliklar soni 8 ta bo‘lib, ulardan 6 tasi fosh qilingan. Harbiy idoralarga qarashli qurol-aslaha hamda davlat mulkini o‘g‘irlash va boshqa turdagi 3 ta jinoyatning barchasi fosh qilingan [10. B. 76].

Hisobotda shaxsiy tarkib bo‘yicha ham muhim statistik ma’lumotlar berilgan. Qidiruv bo‘limi qarorlari asosida 471 nafar erkak va 91 nafar ayol hibsga olingan. Ro‘yxatga olingan jinoyatchilar soni erkaklar orasida 192 nafarni, ayollar orasida 10 nafarni tashkil etgan. Shuningdek, ayni miqdordagi shaxslar suratga olinib, maxsus hisobga qo‘yilgan. 150 nafar erkak takroriy jinoyatchi (retsidivist) sifatida qayd etilgan [3].

Umuman, keltirilgan ma’lumotlar politsiya pristavlari faoliyatida huquqiy bilim va protsessual tajribaning yetishmasligi, tergov ishlarini yuritishdagi malaka pastligi hamda qonun talablariga to‘liq rioya etilmagani tizimli muammo bo‘lganini ko‘rsatadi. Bu esa jinoyat ishlarini samarali tergov qilish va jamoat xavfsizligini ta’minlash imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklagan.

XULOSA

Mazkur tadqiqot natijalari XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Farg‘ona viloyatida politsiya boshqaruv organlarining shakllanishi va faoliyati Rossiya imperiyasining Turkiston o‘lkasida amalga oshirgan mustamlakachilik siyosati bilan tizimli ravishda bog‘liq bo‘lganini ilmiy asosda tasdiqlaydi. Politsiya instituti mazkur davrda mustaqil huquqiy tuzilma sifatida emas, balki harbiy-ma’muriy boshqaruv apparatining tarkibiy elementi sifatida shakllantirilgan.

Arxiv hujjatlari va normativ-huquqiy manbalar tahlili politsiya organlarining vakolatlari kengaytirilganini, ularning ma’muriy, sud va nazorat funksiyalari o‘zaro uyg‘unlashgan holda amalga oshirilganini ko‘rsatadi. Politsiya tizimining markazlashgan boshqaruv modeli general-gubernatorlik apparati orqali amalga oshirilib, uyezd boshliqlari va pristavlar joylarda imperiya siyosatini tatbiq etuvchi asosiy ijro mexanizmi vazifasini bajargan. Bu esa politsiya organlarining institutsional mohiyati siyosiy nazorat va ma’muriy boshqaruvni ta’minlashga qaratilganini anglatadi.

Shuningdek, Farg‘ona viloyatida politsiya tizimining tashkiliy tuzilishi hududning real ijtimoiy-demografik va iqtisodiy sharoitlariga to‘liq mos kelmagan. Aholi sonining o‘sishi, iqtisodiy faollikning kuchayishi va shaharlarning hududiy kengligi sharoitida politsiya xodimlari sonining yetarli emasligi, moddiy-texnik ta’minotning zaifligi hamda boshqaruvdagi nomutanosibliklar tizim samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Jinoyatchilik ko‘rsatkichlarining ortib borishi va qidiruv-tergov faoliyatidagi kamchiliklar politsiya apparatining professional jihatdan to‘liq shakllanmaganini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘zMA), I-15-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 6-yig‘majild, 3-varaq
2. O‘zMA, I-300-fond, 1-ro‘yxat, 193-ish, 12–17-varaqlar
3. O‘zMA, I-590-fond, 1-ro‘yxat, 12-ish, 2-varaq.
4. O‘zMA, I-150-fond, 1-ro‘yxat, 274-ish, 3-varaq
5. O‘zMA, I-300-fond, 1-ro‘yxat, 230-ish, 4–5-varaqlar
6. O‘zMA, I-590-fond, 1-ro‘yxat, 27-ish, 3–6-varaqlar
7. Полиция безопасности. Отчет по ревизии Туркестанского края, произведенной по высочайшему повелению Сенатором Гофмейстером графом К.К.Паленым. – Санкт-Петербург: Сенатская типография, 1910. – 221 с.
8. O‘zMA, I-15-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 6-yig‘majild, 8-varaq
9. *Тимошевская А.Д.* Создание Туркестанского генерал-губернаторства и формирование его полицейской системы во второй половине XIX – начале XX в. // Труды Академии управления МВД России. 2014. – №4 (32). – С.92–96.
10. Туркестан в имперской политике России: Монография в документах / Отв. ред. Т.В.Котюкова. – Москва: Кучково поле, 2016. – 880 с.
11. O‘zMA, I-23-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 120-yig‘majild, 1-varaq
12. O‘zMA, I-300-fond, 1-ro‘yxat, 193-ish, 23–24-varaqlar
13. O‘zMA, I-300-fond, 1-ro‘yxat, 193-ish, 31–33-varaqlar
14. Примечание к ст. 39. Положения об управлении Туркестанским краем в ред. 1902 г. // ПСЗ-Ш., 1902. – № 21.640.

ON THE ORGANIZATION OF POLICE FORCES AND THEIR ACTIVITIES IN THE FERGANA REGION AT THE END OF THE 19TH CENTURY AND THE BEGINNING OF THE 20TH CENTURY

Iqboljon B. Jumaboyev[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2026. 1(93). 21-28.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Key words: *Fergana region, Turkestan Governor-Generalship, police administration, colonial policy, administrative control, Russian Empire, 19th–20th centuries.*

The article ia analyzed the establishment and institutional development of police bodies in the Fergana region in the late nineteenth and early twentieth centuries within the framework of the Russian Empire's colonial administrative system in Turkestan. The study seeks to determine the legal status, structure, and practical functions of police institutions, as well as to reveal their essential role as instruments of imperial political control rather than purely law-enforcement agencies. Special attention is given to the interaction between military-administrative governance and police authority, and to the extent to which the police system corresponded to the socio-demographic and economic conditions of the region.

The research is based on archival documents from the National Archives of Uzbekistan, including fonds I-15, I-300, and I-590, as well as official reports, inspection materials, statistical collections, and normative legal acts regulating governance in the Turkestan Governor-Generalship. In particular, the revision report of Senator K.K. Pahlen (1910) and amendments to the "Regulation on the Administration of the Turkestan Territory" were analyzed. Modern historiographical works on imperial governance and colonial policing were also used as a theoretical framework. The study employs historical-analytical and comparative methods, enabling a systematic examination of institutional structures, administrative hierarchies, staffing patterns, financial provisions, and law-enforcement practices.

The research shows that staffing policies favored European (primarily Russian) officials for higher positions, while local representatives were largely confined to lower ranks. At the same time, financial constraints, insufficient personnel, inadequate infrastructure, and uneven territorial distribution of police units significantly limited operational effectiveness. Statistical evidence indicates a steady increase in recorded crimes between 1900 and 1907, while detection rates remained low.

The study concludes that the police system in the Fergana region was not designed as an autonomous civil institution oriented toward the protection of citizens' rights, but rather as a colonial instrument embedded in the imperial governance structure. Its institutional logic reflected the priorities of maintaining political stability and imperial authority rather than ensuring equitable law enforcement. Structural imbalances, limited professional training, and insufficient adaptation to regional realities reduced its effectiveness in combating crime. Overall, the evolution of police institutions in the Fergana region illustrates the broader patterns of colonial administration in Turkestan and highlights the interdependence between security institutions and imperial governance strategies in the late nineteenth and early twentieth centuries.

References:

1. O'zbekiston Milliy arxivi (O'zMA) [National Archive of Uzbekistan (NA of Uz.)], Fund I-15, Inventory 1, File 6, Sheet 3.

2. NA of Uz. Fund I-300, Inventory 1, File 193, Sheets 12–17.

3. NA of Uz. Fund I-590, Inventory 1, File 12, Sheet 2.

4. NA of Uz. Fund I-150, Inventory 1, File 274, Sheet 3.
5. NA of Uz. Fund I-300, Inventory 1, File 230, Sheets 4–5.
6. NA of Uz. Fund I-590, Inventory 1, File 27, Sheets 3-6.
7. (1910) *Policiya bezopasnosti. Otchet po revizii Turkestanskogo kraya, proizvedennoj po vysochajshemu poveleniyu Senatorom Gofmejsterom grafom K.K. Palenym* [Security Police. Report on the audit of the Turkestan region, carried out by the highest order of Senator Hofmeister Count K.K.Paleny. St. Petersburg: Senatskaya tipografiya.
8. NA of Uz. Fund I-15, Inventory 1, File 6, Sheet 8.
9. Timoshevskaya, A.D. (2014) Sozdanie Turkestanskogo general-gubernatorstva i formirovanie ego policejskoj sistemy vo vtoroj polovine XIX - nachale XX v [Creation of the Turkestan Governorate-General and the Formation of its Police System in the Second Half of the 19th – Early 20th Centuries].*Trudy Akademii upravleniya MVD Rossii.* No 4 (32). Pp. 92–96.
10. Kotyukova T.V.(ed.) (2016) *Turkestan v imperskoj politike Rossii: Monografiya v dokumentah* [Turkestan in the Imperial Policy of Russia: A Documentary Monograph]. Moscow: Kuchkovo pole.
11. NA of Uz. Fund I-23, Inventory 1, File 120, Sheet 1.
12. NA of Uz. Fund I-300, Inventory 1, File 193, Sheets 23-24.
13. NA of Uz. Fund I-300, Inventory 1, File 193, Sheets 31-33.
14. (1902) Primechanie k st. 39 Polozheniya ob upravlenii Turkestanskim kraem v red. 1902 g. [Note to Article 39 of the Regulations on the Governance of the Turkestan Region, as amended in 1902]. PSZ-III. No 21.640.

Muallif haqida ma'lumot:
JUMABOYEV Iqboljon Burxonullayevich – Andijon davlat universiteti O'zbekiston tarixi kafedrasi katta o'qituvchisi. E-mail: djumaboyeviqboljon1986@gmail.com